

## CHIG'ATOY ULUSINING TASHKIL TOPISHI

**Boymurodov Shahzod Bahodir o'g'li***Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 2-kurs magistranti**(+998-90-018-56-56)*

**Annotation:** Ushbu maqolada Chingizzon boshliq turk-mo'g'ul qo'shinlari tomonidan O'rta Osiyo hududlarining egallanishi, bu hududda boshqaruv tizimining o'rnatalishi, ulus hukmdorlarining siyosiy faoliyati, mahalliy zodagonlarning hukmron sulola bilan munosabatlari haqida ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** Mo'g'liston, Anushtegin Xorazmshohlar, mo'g'ul, barlos, jaloir, qovchin, yasoq, ulus, Alouddin Muhammad, Jaloliddin Manguberdi, Chig'atoi

**Аннотация:** В данной статье представлены сведения об оккупации среднеазиатских территорий тюрко-монгольскими войсками Чингисхана, установлении системы управления в этой области, политической деятельности правителей нации, отношениях местной знати с правящей династией.

**Ключевые слова:** Монголия, Ануштегин Хорезмшахлар, Монгол, Барлос, Джалауар, Ковчин, Ясак, Улус, Алауддин Мухаммад, Джалалиддин Мангуберди, Чигатай.

**Abstract:** This article provides information about the occupation of the Central Asian territories by the Turko-Mongol forces of Genghis Khan, the establishment of the administration system in this area, the political activities of the rulers of the nation, and the relations of the local nobles with the ruling dynasty.

**Key words:** Mongolia, Anushtegin Khorezmshahlar, Mongol, Barlos, Jaloir, Qovchin, Yasak, Ulus, Alauddin Muhammad, Jalaliddin Manguberdi, Chigatai

Chingizzon boshchiligida mo'g'ullarning Markaziy Osiyon bosib olishi ikki bosqichda amalga oshirildi. Asosiy zarba Xorazmshohlar davlatiga qarash qaratilgan edi. 1218-yilda mo'g'ullar o'zlarining eski dushmani, yaqinda Qoraxitoylar davlatining go'rxoniga aylangan Kuchluk ustidan g'alaba qozonib[1, 187], natijada Qoraxitoy hududi Mo'g'ullar imperiyasi va Xorazm o'rtasida bo'linib ketadi. 1219-yil kuziga kelib Xorazm bilan urush boshlandi, u 1223-yil bahorigacha davom etdi. Bu davrda Xorazmshohlar davlatining asosiy qismi Hind daryosidan Kaspiy dengizigacha bosib olindi. Mo'g'ullarga yana bir necha yil qarshilik ko'rsatgan oxirgi Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi oxir-oqibat mag'lubiyatga uchradi va 1231-yilda vafot etadi[2, 122].

1206 yili Temujin ismli zodagon Chingizzon nomi bilan Mongoliya taxtiga chiqdi. 1215-yili Chingizzon shimoliy Xitoyda erishilgan g'alabalarni mustahkamlab, o'z etiborini g'arb tomon qaratadi. 1219 yili u Jebe noyonga Sharqiy Turkiston va

Yettisuvni ishg‘ol etishni buyuradi. Chingizzon armiyasi kuchluq davlatini tor-mor keltirib Movarounnahrga bostirib kiradi. Samarqandni mustahkamlash uchun katta xiroj yig‘iladi, biroq bu mablag‘lar isrof qilinadi, shahar devorlari esa mustahkamlanmaydi.

1219-yili Chingizzon katta va mustahkam qal'a bo‘lgan O‘trorga yurish qiladi. O‘z kuchlarini ikkiga ajratib, ulardan birini O‘tror qurshovi uchun qoldiradi[3,162], qolganiga o‘g‘li Juchini boshliq etib Signak, Uzgen, Jenda va so‘ngra Urganchni zabit etish maqsadida safarbar etadi. 5 ming kishilik askar Sirdaryo bo‘lab Binkat va Xo‘jand shaharlariga yuborilgan. Chingizzxonning o‘zi esa asosiy kuchlar bilan suvsiz dashtlar bo‘ylab qisqa yo‘l orqali Buxoro tomon yo‘l oladi. 1220 yilning fevralida Buxoro ishg‘ol etiladi. Chingizon shaharni o‘z askarlariga talon-toroj qilish uchun topshiradi. Buxoroning ayanchli taqdiri haqidagi mash‘um xabar tez orada butun Movarounnahrga yoyiladi. Aholi qo‘rquv va tahlikaga tushadi. Xorazmshoh Muhammad qo‘rqoqlik bilan qochishga hozirlik ko‘radi. Samarqand himoyachilariga boshchilik qilgan turk To‘g‘ayxon Chingizzon xizmatiga o‘tishga umid qilib shaharni topshiradi[4,163]. Mo‘g‘illar shaharga bostirib kirib qirg‘inbarot uyuشتiradilar. Samarqand aholisining faqat to‘rtadan bir qismi omon qoladi.

1220-yilning apreliida mo‘g‘ullar Xo‘jandni ishg‘ol etadilar. Sirdaryo yaqinida ular Binkatni zabit etadilar. Xo‘jand hukmdori Temur Malik mo‘g‘ullarga qarshi mardonavor kurash olib boradi. U o‘zining kam sonli askarlari bilan yo‘l-yo‘lakay jang qilib Urganchga yetib keladi. 1220-yilning yoziga qadar Movarounnahrning sharqiy va markaziy qismi mo‘g‘ullar tomonidan bosib olinadi. Xorazmshoh qochadi. U Kaspiy dengizining janubiy qirg‘og‘idagi orolda vafot etadi. Urganchda Temur Malik qisqa vaqt davomida xalq lashkarlariga boshchilik qiladi. U Chingizzonga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib boradi. 1220-yilning kuzida Chingizzon bir hamla bilan Termizni ishg‘ol etadi.

1221-yilning qishida Urganch qamali boshlanadi. Shahar aholisi dushmaniga qahramonlarcha qarshilik ko‘rsatadi. Urganch taslim bo‘lishidan avval Balx va Marv shaharlari zabit etiladi. 1221-yilning yoziga qadar butun Markaziy Osiyo hududi mo‘g‘ullar tasarrufiga o‘tadi.

Chingizzon hali hayotligidayoq o‘zi tashkil etgan ulkan sultanatni o‘g‘illari o‘rtasida taqsimlab bergen edi. Natijada mug‘ullar bosib olgan hududlarda to‘rta davlat, ya’ni, to‘rtta ulus vujudga keldi. Manbalarga ko‘ra, Chingizzxonning ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoya Oltoy tog‘larining janubiy sarhadlaridan to Amudaryo va Sindgacha bo‘lgan yerlar berilgan bo‘lib[5,267], bu ulus tarkibiga Sharqiy Turkiston, Ettisuvning katta qismi va Movarounnahr hamda o‘ng qirg‘oq Amudaryodagi Balx, Badaxshon, G‘azna, Qobul kabi hududlar kirgan. Mug‘ullar o‘rtasidagi o‘zaro urushlar natijasida hududlar qo‘ldan qo‘lga o‘tib turgan bo‘lsa-da, ulusning o‘zagi saqlanib qolgan edi.

Chingizzonning ikkinchi o‘g‘li bo‘lgan Chig‘atoyning qachon tug‘ilganligi aniqlanmagan. Hali Chingizzon hayotligidayoq Chig‘atoy “Yasoqlar” va mo‘g‘ul qonunlarining hamda an‘analarining bilimdoni sifatida shuhrat qozongan edi. Chig‘atoy mulkclarining asosiy qismi Yettisuvda bo‘lib, El Alargu deb atalgan. Uning bosh shahri Ili daryosi vodiysidagi Olmaliq shahri edi.

Manbalarning xabar berishichi, Botuxon (1227-1255 yy.), O‘gedey (1229-1241 yy.) va Munkexon (1251-1259 yy.)lar zamonida mug‘ullar sultanati ijtimoiy-siyosiy hayotda muhim o‘rin tutib, Oltin O‘rda xonligiga asos solindi. Bulg‘or viloyati, Qrim va unga qarashli dengiz bo‘yi shaharlari, Kavkazning Darband, Boku shaharlarigacha, Xorazmning shimoli Urganch shahri bilan G‘arbda Dnestrda boshlangan cho‘llar, Sharqda esa G‘arbiy Sibir va Sirdaryoning quyi oqimlarigacha bo‘lgan yerlar Oltin O‘rdaga qaragan. Chig‘atoy o‘z yerlariga mulk sifatida egalik qilgan edi.

Rashididdin ma‘lumotlariga ko‘ra, mug‘ullar davlatida O‘gedey hukmronligi davrida Chig‘atoy butun imperiyada shu qadar kuchli hokimiyatga ega ediki, hatto buyuk xonning o‘zi ham “uning maslahati va ko‘rsatmalarisiz” muhim qarorlar chiqara olmas edi. Ammo, shunga qaramasdan Chig‘atoy butun ulusning mustaqil hukmdori emas edi.

Musulmon manbalarida bo‘lgani kabi, Xitoy manbalarida ham Chig‘atoy chehrasida kulgi bo‘lmagan, qaramog‘idagilarni qo‘rquvda ushlab turadigan, zulmkor shaxs sifatida tasvirlanadi. “Yasoqlar”ning bilimdoni va nazorat qiluvchisi bo‘lgan CHig‘atoy mug‘ul qonunlari buzilishini juda shafqatsiz jazolagan. Musulmon qonunlari ko‘pincha “Yasoq”larga mos kelmasligi tufayli u islomga yaxshi munosabatda bo‘lmagan. Tadqiqotchilarining xulosalariga ko‘ra Chig‘atoyning nomi quyidagilarda saqlanib qolgan:

1. O‘rtta Osiyodagi mug‘ul davlatining rasmiy nomlanishi atamasida.
2. Chig‘atoy davlatining harbiy kuchlarini tashkil etgan ko‘chmanchilar nomida.
3. O‘rtta asrlar O‘rtta Osiyoda shakllangan adabiy til nomida.
4. Joylarning nomlanishida.

Chig‘atoy ulusi tarkibiga kirgan hududlar o‘z geografik joylashuviga ko‘ra, Chingizzon asos solgan ulkan sultanatning ichki va tashqi, iqtisodiy va madaniy hayoti hamda aloqalarida, elchilik munosabatlarida katta o‘rin tutardi. Misol uchun, Chingizzon va uning dastlabki vorislari davrida sultanat poytaxti bo‘lgan Qoraqurum, keyinchalik Xonbaliq (Pekin) shaharlarini Dashti Qipchoqdagi Oltin O‘rda va Erondagi Xulagiylar davlati bilan bog‘lovchi muhim aloqa – savdo yo‘llari mug‘ullar sultanatining markazida joylashgan CHig‘atoy ulusi hududidan o‘tardi. CHig‘atoy ulusi hukmdorlari Buyuk ipak yo‘lining markaziyo yo‘nalishini nazorat qilgan bo‘lsalar, Jo‘ji ulusiga bu yo‘lning shimoliy yo‘nalishi nazorati yuklatilgan. Bu yo‘nalishda Volga bo‘yi shaharlari bilan birga Xorazm vohasi ham katta o‘rin tutganligi tufayli,

Xorazmning g‘arbiy qismi Jo‘ji ulusi tarkibiga kiritilgan. Umuman olganda, Chig‘atoy ulusi davrida Xitoy, Markaziy Osiyo va Dashti Qipchoqdagi ko‘pgina hududlarda turkmug‘ul zodagonlari savdo-tranzit yo‘llari ustidan o‘z nazoratlarini o‘rnatadilar.

Chig‘atoy ulusi tashkil topgach, Movarounnahr va Sharqiy Turkistonning madaniy viloyatlarini ulug‘ xon tomonidan tayinlangan Mahmud Yalavoch boshqargan. Ulug‘ xon shuningdek, Movarounnahrdagi mug‘ul qo‘sishnlari boshliqlarini ham tayinlagan. Bu boshliqlar ko‘p hollarda barlos, jaloyir, qovchin va orlat qabilalaridan bo‘lgan. Ibn Arabshoh ma’lumotlariga ko‘ra, jaloyirlar Amudaryoning shimoli, Buxoroning sharqiy tomonlarida, barloslar Qashqadaryo vohasida, orlatlar Afg‘onistonning shimolida joylashganlar. Mahmud Yalavoch ham Movarounnahrda olib borgan siyosatida ko‘pincha shu qabilalarga suyanib ish ko‘rgan.

Mo‘g‘ullar ko‘chmanchi xalq bo‘lganligi uchun boshqaruvi ishlariga no‘noq edilar. Asli xorazmlik bo‘lgan Mahmud Yalavochning Movarounnahr noibi etib tayinlanishi beziz emas edi. Chig‘atoy ulusidagi harbiy bo‘lmagan hokimiyat, odatda, mahalliy aholi orasidagi bilimli va yuqori mavqega ega bo‘lgan shaxslarga berilgan. O‘troq xalqlarni boshqarish, zodagonlarni itoatda saqlash uchun boshqaruvdagi zarur bilimlar va tajribalar kerak bo‘lgan hollarda mug‘ullar orasida harbiy bo‘lmagan hokimiyatdagi oliy lavozimlarni egallashga qodir shaxslar deyarli yo‘q edi. Jo‘vayniy ma’lumotlariga ko‘ra, Chingizzon hayotligi davridayoq mug‘ul zodagonlarining yosh bolalari, hukmdor xonadonning bolalari maxsus o‘qitilgan bo‘lsa-da, Chingizzxonning o‘zi ham, uning avlodlari ham bilimli shaxslarga, ma’muriy boshqaruvchilar va amaldorlarga, tabiblar va olimlarga, savdogarlar kabilarga juda katta ehtiyoj sezganlar. SHuning uchun ham Qoraqurumdagи buyuk xon va ulus xonlarining saroylarida bo‘ysundirilgan xalqlar vakillari, ayniqsa, musulmon madaniyati vakillari katta izzatobro‘ga ega bo‘lganlar.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Ш.Вохидов, А.Қодиров. Шаркнинг машхур сулолалари . - Тошкент: Akademnashr, 2013. 624 б.
2. А.Сагдуллаев, Б.Аминов, Ў.Мавлонов, Н.Норқулов. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти I қисм. - Тошкент: Академия, 2000. 272 б.
3. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. – Toshkent: “Yosh kuch” , 2019. 424 б
4. Арминий Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Тошкент: Info Capital Books, 2024. 464 б.
5. Жувайний Алоуддин Атомалик. Тарихи Жаҳонгушо (Жаҳон фотихи тарихи) / Турк тилидан Назарбек Рахим таржимаси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2015. 504 б .